

О‘ЗBEKISTONDA UCH BOSQICHLI SPORT MUSOBAQALARINING RIVOJLANISHI

A.A.Rustamov - BDPI O`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda uch bosqichli sport musobaqalarini tashkil etish, o‘tkazish va rivojlanish xronologiyasi ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida davlat ta'lim siyosati darajasida ko‘tarilganligi berilgan. Shuningdek, maqolada uch bosqichli sport musobaqalari orqali zaxira sportchilarni shakllantirish bilan bir qatorda, uning sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini hosil qilishdagi beqiyos ahamiyatini o‘quvchi va talaba-yoshlar ongiga etkazish, ma’naviy, jismoniy, intellektual, hamda mehnat tarbiyasining samarali tizimini vujudga keltirish, shaxsiy va milliy xavfsizlik, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, davlatning xalqaro obro‘cini ko‘tarish yoritilgan va tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: Universiada, barkamol avlod, umid nihollari, xronologiya, kadr, ta'lim tizimi, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, estetik tarbiya, shaxs, ijtimoiy yetuklik, ma'naviyatlik.

O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik uch bosqichli sport musobaqalarini muntazam tashkil etish va o‘tkazish uchun asos yaratish bilan bir qatorda, uning sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini hosil qilishdagi beqiyos ahamiyatini o‘quvchi va talaba-yoshlar ongiga etkazish, ma’naviy, jismoniy, intellektual, hamda mehnat tarbiyasining samarali tizimini vujudga keltirish, shaxsiy va milliy xavfsizlik, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, davlatning xalqaro obro‘cini ko‘tarishga ko‘maklashadi. Bu esa O‘zbekiston jamiyatida haqqoniy hayot tarzini tashkil etish, o‘quvchi va talaba-yoshlarni haqqo‘ylik, adolatlik, poklik ruhida tarbiyalash, ularning axloqiy, ruhiy, jismoniy hamda ijtimoiy salomatliklarini barqarorlashtirish uchun ijtimoiy-pedagogik asos yaratadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 oktyabrdagi “O‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” sport musobaqalarini to‘rt bosqichda o‘tkazish amalga oshirilishi belgilandi.

“Umid nihollari” sport musobaqasi 7-18 yoshgacha, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litseylarning I-II kurslari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi.

1-bosqich-sentyabr oyida bo‘lib, har bir sinf va kursning sport turlari bo‘yicha jamoasini shakllantirish, sentyabr-oktyabr oylarida sinf va kurs jamoalari o‘rtasida musobaqaning ta’lim muassasasi bosqichini o‘tkazish hamda g‘olib jamoalardan ta’lim muassasasining sport turlari bo‘yicha terma jamoasini shakllantirishdan boshlanadi.

Musobaqaning quyi bosqichini o'tkazishga ta'lim muassasasi direktori va tuman, shahar xalq ta'limi bo'limi, jismoniy tarbiya va sport bo'limlari mas'ul etib belgilangan.

2-bosqich-noyabr oyida tashkil etilib, ta'lim muassasalarining terma jamoalari o'rtasida musobaqaning tuman, shahar, bosqichini o'tkazish va g'olib jamoalarni aniqlash hamda shahar va tumanlarning sport turlari bo'yicha terma jamoasini shakllantirishdan iborat.

3-bosqich-mart-aprel oylarida o'tkaziladi. Unda musobaqaning 2-bosqichida g'olib bo'lgan terma jamoalar o'rtasida musobaqaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi o'tkaziladi. Folib jamoalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining sport turlari bo'yicha terma jamoasi shakllantiriladi.

4-bosqich-may oyida bo'lib o'tadi. Unda musobaqaning 3-bosqichida g'olib bo'lgan terma jamoalar o'rtasida musobaqaning respublika final bosqichi o'tkaziladi va g'olib jamoalar aniqlanadi.

“Barkamol avlod” sport musobaqasi kasb-hunar kollejlarning 17-20 yoshdagi o'quvchilari ishtirokida o'tkaziladi. Bunda ham yuqoridagi kabi to'rt bosqich bo'lib, oylar kesimida emas, yil davomida bosqichma-bosqich har bir kursning sport turlari bo'yicha jamoalari shakllantiriladi va hududiy bosqichlardan g'olib bo'lganlar terma jamoa sifatida viloyatda bellashadi, g'olib bo'lganlar respublika bosqichining finalida ishtirok etadi.

“Universiada” sport musobaqasida oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichining I-VI kurs hamda magistratura bosqichining I-III kurs 17-28 yoshdagi talabalari qatnashadi. Bu yo'nalishda ham yil davomida bosqichma-bosqich har bir fakultetning sport turlari bo'yicha jamoalari shakllantiriladi va g'olib bo'lgan jamoalar viloyat terma jamoasi safida musobaqaning respublika bosqichiga boradi.

Respublikamizda umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlari musobaqalar ilk bora “Olimpiya umidlari” nomi bilan 2000 yilda Toshkent shahrida, “Umid nihollari” nomi bilan ilk bora 2002 yilda – Farg'ona viloyatida o'tkazilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyundagi “O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida”gi 244 qaroriga asosan “Umid nihollari” 2003 yilda Xorazmda o'tkazildi. (musobaqalar 2006 yilda – Qarshi shahrida, 2009 yilda – Guliston shahrida, 2012 yilda – Navoiy shahrida bo'lib o'tgan).

Agar, 2003 yilda 16 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlarimizning 20 foizi sport bilan shug'ullangan bo'lsa, ayni kunda bu ko'rsatkich 55,8 foizga etdi.

2012 yilda “Umid nihollari” sport musobaqasi sportning 12 ta turidan o'tkazilgan edi, 2015 yilda esa 17 ta turdan o'tkazildi.

Sportning olimpiya turlarini rivojlantirish, mazkur musobaqaga o'quvchilarni yanada ko'proq qamrab olish maqsadida 2012 yilgi musobaqa dasturidan sportning 2 ta - milliy kurash va belbog'li kurash turlari chiqarildi va 2015 yilgi musobaqa dasturiga sportning 7 ta turi - badminton, boks, og'ir atletika, erkin kurash, yunon-rum kurashi, taekvando, dzyudo kiritildi.

Natijada, 2015 yilda musobaqa ishtirokchilari soni 2012 yilga nisbatan 388 876 nafaraga yoki 5,1 foizga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 271- sonli qarori ijrosini bajarish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlarining o'rtasida 3 yilda bir marta «Barkamol avlod» sport musobaqalari tashkil etilgan.

"Barkamol avlod" sport musobaqalari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi-yoshlarni jismoniy etuk va ahloqiy barkamol, Vatanga sadoqat ruhida komil inson qilib tarbiyalash, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini zamon talablari darajasida rivojlantirishni amalga oshirish, milliy sport turlariga yoshlarni qiziqishi va e'tiborini kuchaytirish, o'quvchi-yoshlarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini to'g'ri mazmunli tashkil etish, jamoa bo'lib harakat qilish, g'alabaga intilish ishtiyoqlarini kamol toptirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va samaradorligini oshirish maqsadida o'tkaziladi.

2001 yil ta'lim muassasalarida 1-bosqich musobaqalarida 400000 mingga yaqin, musobaqalarning 2-bosqichida 150 mingga yaqin o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

2003 yil ta'lim muassasalarida musobaqalarning 1-bosqich musobaqalarida 420000 mingdan ortiq, musobaqalarning 2-bosqichida 180 mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

2003 yilda Andijon viloyatida 5 iyundan 11 iyungacha sportning 14 ta turidan (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, engil atletika, milliy kurash, belbog'li kurash, tennis, stol tenisi, shaxmot, badiiy gimnastika, og'ir atletika, boks va suzish) o'tkazilib, unda 2786 nafar o'quvchi-yoshlar ishtirok etishgan (har bir viloyatdan 199 nafar, shundan qizlar 812 nafar).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyundagi 244-sonli «O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida»gi qarorida jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda o'quvchilarni sport mashg'ulotlariga uzluksiz jalb qilishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini samarali ishlashini ta'minlash maqsadida musobaqalar har uch yilda bir marta o'tkaziladigan bo'lgan.

2005 yil ta'lim muassasalarida musobaqalarning 1-bosqich musobaqalarida 545000 mingdan ortiq, musobaqalarning 2-bosqichida 200 mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

2008 yil ta'lim muassasalarida musobaqalarning 1-bosqich musobaqalarida 610000 mingdan ortiq, musobaqalarning 2-bosqichida 200 mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

2008 yil 17-21 may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgan «Barkamol avlod» sport musobaqalarining Respublika final bosqichi sportning 12 ta turidan (basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, engil atletika, milliy kurash, belbog'li kurash, tennis, stol tennisi, shaxmat, badiiy gimnastika va suzish) o'tkazilgan. Ishtirokchilar soni 2296 nafar, shundan qizlar 784 nafar, o'smirlar 1106 nafar, murabbiylar 238 nafar va hakamlar 168 nafarni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyundagi "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz respublika sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risida"gi 181-sonli qaroriga asosan «Barkamol avlod» sport musobaqalari 2014 yilda Namangan viloyatida o'tkazilishi belgilangan.

2014 yil ta'limi muassasalarida 1-bosqichida 810 ming nafardan ortiq, 2-bosqichida 260 mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar ishtirok etgan.

25-27 may kunlari Jizzax shahridagi «So'g'diyona» universal sport majmuasi stadioni uzra akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining «Barkamol avlod – 2017» sport o'yinlari mash'alasi porlab turdi.

Sportning 17 turi – basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, shaxmat, og'ir atletika, boks, dzyudo, taekvondo, erkin kurash, yunon-rum kurashi, suzish, engil atletika, tennis, stol tennisi, badminton va badiiy gimnastika bo'yicha bellashuvlarda litsey va kollejning 898 o'quvchisi ishtirok etdi. Sportchilar 193 oltin, 193 kumush va 214 bronza medali uchun bahs olib bordi.

Musobaqada eng ko'p medal jamg'arib, birinchi o'rinni egallagan Toshkent shahri jamoasi bosh mukofot – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod – 2017» sport o'yinlari qatnashchilariga tabrigining asl nusxasi va Prezident sovg'asi – "Damas" avtomobili bilan taqdirlandi. Umumjamo'a hisobida ikkinchi o'rinni egallagan Andijon viloyati va uchinchi pog'onadan joy olgan Samarqand viloyati jamoalariga Prezident sovg'asi – "Damas" avtomobillari topshirildi.

"Universiada" sport o'yinlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uch bosqichli sport musobaqalari 2000 yili Universiada bilan Namanganda boshlangan edi. Ushbu musobaqada 15 terma jamoa ishtirok etdi. Ishtirokchilari soni ko'p bo'lganligi sababli Toshkent shahri ikkita jamoa bilan qatnashdi. Musobaqa yakuniga Namangan viloyati terma jamoasi hammadan ko'p medalga ega bo'lgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2004 yili "Universiada" sport musobaqalariga Samarqand shahri mezbonlik qildi. Ushbu musobaqada hozirga qadar rekord sanalgan 2500 nafarga yaqin sportchilar

ishtirok etishdi. Bu safar ham umumjamo'a hisobida Toshkent-1 jamoasi etakchilikni qo'lg'a oldi.

2007 yilgi "Universiada" sport musobaqalari mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida o'tkazildi. Mana shu yildan e'tiboran Toshkent shahridan bitta jamoa ishtirok etadigan bo'ldi. 2000 nafarga yaqin sportchilarni jamlagan musobaqa barchada katta taassurot qoldirgani turgan gap. Uning yakunlariga ko'ra, Toshkent shahri jamoasi yana shohsupaning eng yuqorisidan o'rin olishdi.

Oradan uch yil o'tib, aniqrog'i, 2010 yilgi "Universiada" sport musobaqalarini o'tkazish Andijonga keldi. Qo'shni viloyatda bo'lib o'tgan musobaqada 1000 nafarga yaqin sportchilar ishtirok etishdi va yakunda Toshkent shahri jamoasi g'oliblikni qo'lg'a kiritdi.

Nihoyat, 2013 yilgi "Universiada" sport musobaqalari yana ko'hna va navqiron Buxoro shahrida o'tkazildi. Bundan uch yil oldin yuqori safiyada tashkil etilgan musobaqada Toshkent shahri jamoasi navbatdagi marta g'oliblikni qo'lg'a kiritdi va Prezidentimiz tomonidan taqdim etilgan "Damas" avtomobili sohibiga aylandi.

Hammaga ma'lumki, joriy yilgi "Universiada" sport musobaqalari Farg'onada bo'lib o'tdi. Sport bayramiga aylanib borayotgan "Universiada" musobaqalarining "Sog'lom ona va bola yilida Farg'onada o'tkazilishi viloyatimiz sportchilari zimmasiga yanada ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Davlatimiz rahbarining 2011 yil 19 yanvardagi "2011-2013 yillarda respublikada futbolning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va uni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida Farg'onada yangi "Istiqlol" stadioni jahon andozalari darajasida qurilib foydalanishga topshirildi.

O'z bag'riga 20 ming tomoshabinni sig'dira oladigan mazkur o'yingoh ko'pchilikning havsini keltirishi turgan gap.

Bundan tashqari, Farg'ona davlat universitetida 3 ming 200 o'rinli futbol maydoni, yopiq suzish havzasi, uchta voleybol maydoni va engil atletika yo'laklari qurilib, foydalanishga topshirildi.

T/r	"Umid nihollari" sport musobaqalariga kiritilgan sport turlari nomi	"Barkamol avlod" sport musobaqalariga kiritilgan sport turlari nomi	"Universiada" sport musobaqalariga kiritilgan sport turlari nomi
1.	Futbol va gandbol	Futbol va gandbol	Futbol va gandbol
2.	Voleybol va mini-futbol	Voleybol va mini-futbol	Voleybol va mini-futbol
3.	Basketbol va stritbol	Basketbol va stritbol	Basketbol va stritbol
4.	Dzyudo va ushu	Dzyudo va sambo	Dzyudo va sambo
5.	Badminton va tennis	Badminton va tennis	Badminton va tennis

6.	Yengil atletika va velosport	Yengil atletika va velosport	Yengil atletika va velosport
7.	Suzish va stol tennisi	Suzish va stol tennisi	Suzish va stol tennisi
8.	Sport va badiiy gimnastikasi	Sport va badiiy gimnastikasi	Sport va badiiy gimnastikasi
9.	Boks va og'ir atletika	Boks va og'ir atletika	Boks va og'ir atletika
10.	Shaxmat va armrestling	Shaxmat va armrestling	Shaxmat va armrestling
11.	Karate va taekvondo	Karate va taekvondo	Karate va taekvondo
12.	Turon va belbog'li kurash	Turon va belbog'li kurash	Turon va belbog'li kurash
13.	Kurash va o'zbek jang san'ati	Kurash va o'zbek jang san'ati	Kurash va o'zbek jang san'ati
14.	Erkin va yunon-rum kurashlari	Erkin va yunon-rum kurashlari	Erkin va yunon-rum kurashlari

Viloyatimiz 2019 yilda o'tkaziladigan "Barkamol avlod" sport musobaqasining futbol va gandbol sport turlarining, "Universiada" sport musobaqasining suzish va stol tennisi bo'yicha finaliga mezbonlik qildi. 2020 yilda "Umid nihollari" sport musobaqasining suzish va stol tennisi respublika final bosqichi esa Samarqandda bo'lib o'tdi.

Oliy talim muassasalari talabalari o'rtasida "Kichik Olimpiada" nomini olgan "Universiada-2021" sport musobaqalarining dzyudo turi bo'yicha Respublika final bosqichi bo'lib o'tdi. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti sport majmuasida o'tkazilgan bellashuvlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan kelgan 170 nafardan ziyod dzyudochi talaba-yoshlar bahs olib borishdi.

Erkaklar: 60 kg, 66 kg, 73 kg, 81 kg, 90 kg, 100 kg va +100 kg.

Ayollar: 48 kg, 52 kg, 57 kg, 63 kg, 70 kg, 78 kg va +78 kg.

Qizg'in va murosasiz kurashlarga boy tarzda o'tgan final o'yinlari yakunlariga ko'ra Buxoro viloyati dzyudochilari umumjamo'a hisobida birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi. Kuchli uchlikdan Toshkent hamda Surxondaryo viloyati talaba yoshlari joy olishdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi —Jismoniy tarbiya va sport sohasida Davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5368-sonli Farmoni // www.lex.uz

2. Askarovich R. A. The Role of Three-Level Sports Competitions in the Education of Human Moral Qualities //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 106-111

3. Rasulovna S. N. Ways to Improve the Efficiency of Technical and Tactical Actions Performed by Skilled Players during the Competition //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 196-206.

4. Собирова М. Р., Собирова Н. Р. ПСИХОЛОГИЯ ЗДОРОВЬЯ: ПОНЯТИЯ И ТЕОРИЯ //Психология XXI столетия. – С. 173-175.

5. Rasulovna S. N., Hamzayevich I. S. JISMONIY TARBIYA–SOG ‘LOM JAMIYAT ROYDEVORI: 10.53885/edinres. 2022.32. 34.107 Sabirova Nasiba Rasulovna Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası o ‘qituvchisi Ismoilov Shahzod Hamzayevich Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 854-856.

6. Rasulovna S. N., Nusratilloevich Y. J. Possibilities of using the tools used in teaching short-distance running techniques //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 210-222.

7. Rasulovna S. N., Rasulovna S. M. Advantages of Using Action Games in Teaching the Sport of Basketball //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 44-48.

8. Fazliddinov F. S. Optimization of training workloads for primary group players //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1025-1030.

9. Fazliddinov F. ОСОБЕННОСТИ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

10. Fazliddinov F. S ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ СКОРОСТНО-СИЛОВОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

11. Savrievich F. F., Shodievich T. M. Technical and tactical training of football players //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 259-266.

12. Khaidarov U. R. Technique of Movement of Sprinters' Legs Affecting the Increase in Sprint Speed //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 49-54.

13. 4.Хайдаров У. Р. 7. УР Хайдаров Обоснование влияния правильной постановки стопы на увеличение скорости бега: УР Хайдаров, АУ Эргашев, РХ Кадиров //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1. – С. 65-74.

14. Хайдаров У. Р. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОБОСНОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ СКОРОСТНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СПРИНТЕРОВ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЫ: 10.53885/edinres. 2021.59. 33.029 Хайдаров Улугбек Рустамович Магистрант Бухарского государственного университета Научный руководитель: Кадиров Рашид Хамидович Профессор кафедры Теории и методики физической культуры п. н. Бухарского государственного университета //Научно-практическая конференция. – 2021.

15. Karomatovich I. A., Navruzovna S. G. Technical and Tactical Training in Training Young Players //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 132-136.

16. Karomatovich I. A. et al. Assessment of Offensive and Defensive Technical-Tactical Actions of Handball Players in the Competition //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 112-116.
17. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training specialen durance of yonggrilh and boll players //Academical. An International Multidisciplinary Research Journal2.
18. IBRAGIMOV A., MO‘MINOV F. YOSH FUTBOLCHILAR O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASI //PEDAGOGIK MAHORAT. – С. 24.
19. Abduyeva S. THE STUDY OF PHYSICAL CULTURE IN CENTRAL ASIA IN THE 16th AND 18th CENTURIES AS A TOPICAL ISSUE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
20. Abduyeva S. When planning the training of handball teams of university students, take into account the functional status of athletes by their temperament types //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
21. Abduyeva S. Psychological aspects of training young handball players //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
22. Azimovna F. M., Kuziboevich O. B. UNIQUE WAYS OF AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 11-15
23. Ilxomovich M. F. FUTBOL O‘YINIDA TOP‘ BILAN HARAKAT QILISH TEXNIKASI VA TAKTIKASINI ISHLAB CHIQUISH ASOSLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 88-91.
24. Ilxomovich M. F. THE BASICS OF DEVELOPING TECHNIQUES AND TACTICS OF MOVING WITH THE BALL IN A FOOTBALL GAME //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 84-87.
25. Ilxomovich M. F. FEATURES OF THE PROCESS OF TRAINING YOUNG PLAYERS IN BEGINNER TRAINING GROUPS //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 17. – №. 3. – С. 97-101.
26. Azimovna F. M. Peculiarities of Aesthetic Education of Students By Means of Physical Culture and Sports //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 212-215.